

**Boydedayev Dostonbek Xusniddin o'g'li**

*Namangan davlat universiteti Tarix yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

*Tel: 93 190-26-06 e-mail: [boydedayevdostonbek7@gmail.com](mailto:boydedayevdostonbek7@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'lkamiz hududida IX-XII asrlarda sodir bo'lgan renessans jarayonining yorqin vakillaridan biri, XII asrda yashab, faoliyat olib borgan, tasavvuf ta'limoti rivojiga katta hissa qo'shgan buyuk alloma- Ahmad Yassaviyning hayot yo'li, faoliyatidagi o'ziga xosliklari va yutuqlari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Ahmad Yassaviy, Turkiston, tasavvuf, tariqat, madrasa, xonaqoh, "Hikmat", murid, shayx, murshid, pir, maqbara, "Sulton ul-orifin", O'rta Osiyo, Bag'dod, renessans.

### ЖИЗНЬ АХМАДА ЯСАВИ И ЕГО МЕСТО В РАЗВИТИИ СУФИЗМА

**Аннотация:** В данной статье рассмотрен жизненный путь Ахмеда Яссави, одного из ярких представителей ренессанса, происходившего в нашей стране в 9-12 веках, великого учёного, жившего и творившего в 12 веке и сделавшего великий вклад в развитие суфизма, особенности и достижения в их деятельности.

**Ключевые слова:** Ахмад Яссави, Туркестан, суфизм, тарикат, медресе, Ханака, «Хикмат», мюрид, шейх, муршид, пир, гробница, «Султан уль-Арифин», Средняя Азия, Багдад, Возрождение.

### LIFE OF AHMAD YASSAVI AND HIS PLACE IN THE DEVELOPMENT OF SUFISM

**Annotation:** In this article, the life path of Ahmed Yassavi, one of the bright representatives of the renaissance process that took place in our country in the 9th-12th centuries, the great scholar who lived and worked in the 12th century and made a great contribution to the development of Sufism, features and achievements in their work are discussed.

**Key words:** Ahmad Yassavi, Turkestan, Sufism, tariqat, madrasah, Khanaqah, "Hikmat", murid, shaykh, murshid, pir, tomb, "Sultan ul-Arifin", Central Asia, Baghdad, renaissance.

**Kirish:** Movarounnahr o'lkasida IX-XII asrlardagi renessans jarayonida ilm-fanning turli xil sohalarida katta yutuqlar qo'lga kiritildi. O'tmish tajribalaridan kelib chiqqan holda kelajak uchun juda ham ahamiyatli bo'lgan ilmiy yutuqlar qo'lga kiritildi. Jumladan, islom diniga oid bilimlar ham bu davrga kelib bir qadar rivojlandi.

Dinning asl mohiyatini ochib berishga, uning asl mazmunini keng ommaga yetkazish va to'g'ri tushuntirishga umrini bag'ishlash istagida bo'lgan ulamolar ko'plab yetishib chiqdi. Bunday ulamolar nafaqat xalifalikda, balki O'rta Osiyo hududida ham juda ko'p bo'lgan. Shunday allomalardan biri Ahmad Yassaviy edi.

Ushbu maqolada Ahmad Yassaviyning ilmiy faoliyatiga to'xtalib o'tiladi.

**Asosiy qism:** Tasavvuf ta'limoti dastlab VIII asr o'rtalarida Iroqda yuzaga kelgan[1]. Tasavvuf asosida inson faoliyati va uning kamoloti yotadi. O'lkamiz tarixi bilan bog'liq tasavvuf tariqatlari haqida aytadigan bo'lsak, XII asrda yassaviya, XII asr oxirida Xorazmda kubroviya, XIV asrda Buxoroda naqshbandiya kabi tasavvuf tariqatlari vujudga kelganligi haqida ko'plab manbalarda ma'lumot keltirib o'tilgan.

Yassaviya tariqatiga yetuk mutafakkir Ahmad Yassaviy tomonidan asos solingan.

Ahmad Yassaviy 1041-yilda Saryom (Sayram) qishlog'ida Shayx Ibrohim xonadonida tug'iladi[2]. Yetti yoshida otasidan ayrilgan Ahmad Yassaviy oradan ma'lum vaqt o'tganidan so'ng onasidan ham ayriladi. Shundan so'ng Arslonbob qo'lida qoladi. Ba'zi manbalarda Arslonbob Yassaviyning bobosi ekanligi ta'kidlanadi[3]. Yassaviy dastlabki ta'limotni Turkistonda Shahobiddin Isfijobiydan olgan. Undan keyin Arslonbobning taklifiga ko'ra, Buxoroga boradi va u yerda Yusuf Hamadoniyan ta'lim oladi. Yassaviyning o'zi 23 yoshida Hamadoniyaning oldiga borganligini ta'kidlagan.

Rivoyatlarga ko'ra, Yassaviy 63 yoshga yetgach, yer ostida hujra yasatib, "chilla"ga kirgan, qolgan umrini toat-ibodat qilib, qimmatli hikmatlar yozib, yer ostida o'tkazgan. Yassaviy 125 yoki 133 yil umr ko'rgan degan taxminlar mavjud[4].

Yassaviy o'lkamiz tarixida ilk turkiyzabon mutasavvuf shoir sifatida ma'lumdir. Uning g'oyalari tez tarqalishi sabablaridan biri she'rlarining turkiy tilda yozilishi edi. Ushbu yo'nalishda ko'plab shogirdlarni yetishtirgan.

Yassaviya tariqatining o'ziga xos jihatlari bor:

1. Murid hech kimni o'z shayxidan ustun qo'ymasligi kerak.
2. Murid shunchalik idrokli bo'lishi kerakki, to o'z shayxining barcha ishoralarini mukammal anglay olsin.
3. Murid shayxining barcha so'z va ishlariga sodiq bo'lishi, unga mutlaqo mutaqid bo'lmog'i lozim.
4. Murid o'z murshidining barcha topshiriqlarini sidqidildan bajarib, uni hamisha rozi qilmog'i rozim.
5. Murid o'z so'ziga sodiq bo'lib, shayxining ko'nglida hech qanaqa shubha qoldirmasligi lozim.
6. Murid o'z va'dasiga vafodor va so'zida ustuvor bo'lishi kerak.
7. Murid o'z ixtiyoridagi barcha mol-mulkni, butun bor-u yo'g'ini o'z shayxiga nisor qilish uchun tayyor bo'lishi kerak.
8. Murid o'z shayxining barcha siridan ogoh bo'lib, uni oshkor qilishni hech qachon xayoliga keltirmasligi lozim.

9. Murid o'z shayxining barcha takliflarini nazarda tutmog'i, uning mushkulini oson qilishi, nasihatlarini bajo keltirishi shart.

10. Murid Alloh visoli uchun o'z shayxi yo'lida butun mol-u jonini nisor etmoqqa tayyor turishi, uning do'stiga do'st, dushmaniga dushman bo'lib yashashi shart[5].

Yassaviya tariqati ko'plab jamoatchilik tomonidan ijobiy baholanadi. Lekin yuqorida keltirib o'tilgan ayrim talablarda o'quvchini o'ylantiradigan ayrim jihatlar bor. Ammo Ahmad Yassaviydek ulug'vor insonlarning faoliyatini muhokama qilish to'g'ri ish emas, chunki har ishni o'z professionallari qilgani yaxshi.

Yassaviyning fikricha, shariatsiz tariqat, tariqatsiz ma'rifat, ma'rifatsiz haqiqat bo'la olmaydi[6]. Ular doim bir-birini to'ldiradi. Tariqatning asosida kamolotga uzlat va tarkidunyochilik orqali yetishish g'oyasi olg'a suriladi. Unga faqat bu dunyo rohatidan voz kechib, uzlatda toat-ibodat yo'lida zahmat chekib, mashaqqatli mehnat qilgan kishilargina yeta oladi. Ya'ni Yassaviy tomonidan asos solingan tariqatga ko'ra, mashaqqatli mehnat va aziyat faqatgina shariat yo'lida bo'lishi kerakligi ta'kidlangan.

Yassaviya tariqati aholi o'rtasida keng yoyilgan. Shuning uchun ham Yassaviy shaxiyati nafaqat bugungi kunda, balki o'rta asrlardayoq juda ham qadrlangan. Masalan, Amir Temur farmoni bilan 1395-1397-yillarda Yassaviyning qabri o'rnida maqbara qurilgan[7]. Bu yerda turli ehsonlar uchun 60 chelak suv sig'adigan katta doshqozon ham o'rnatilgan.

**Xulosa:** Ahmad Yassaviy shaxsiyati haqiqatdan ham ulug'vorlikning yuksak darajasiga ko'tarilgan. Amir Temurdek buyuk insonlar ham Yassaviyga cheksiz hurmat ko'rsatib, ruhi shod bo'lishi uchun astoydil intilgani Ahmad Yassaviyning qanchalik ahamiyatli shaxs ekanidan dalolat beradi. Shunga ko'ra, Ahmad Yassaviy o'rta asrlarda o'lkamizdan yetishib chiqib, ulug'vor renessans yaratgan allomalarimiz qatoridan ajralmas o'rin egallaydi. Ayniqsa, Yassaviy kabi allomalarimizning ilmiy faoliyati islom dinining rivoji uchun sarflanganligi bizga cheksiz faxr hamda o'z tariximizdan g'ururlanish tuyg'usini taqdim etadi, ajdodlarimizga munosib bo'lish mas'uliyatini yuklaydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI

1. Muhammadjonov A. O'zbekiston tarixi (IV asrdan XVI asrgacha). –T.: Sharq, 2017. -160 b.
2. Sagdullayev A. O'zbekiston tarixi. I kitob. –T.: VNESHINVESTPROM, 2019. –637 b.
3. O'roqov D., Sharopov A. O'zbekiston tarixidan universal qo'llanma. –T.: Akadernashr, 2013. -657 b.
4. <https://arboblar.uz/uz/people/akhmad-yassavi> 26.01.2024
5. <https://oyina.uz/uz/generation/113> 26.01.2024

6. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/manaviyat-yulduzlari/ahmad-yassaviy-1041-1167/index.php?lng=lat> 26.01.2024
7. <https://shosh.uz/uz/mutafakkirlar-ahmad-yassaviy-1105-1167/> 26.01.2024